

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**"RO'YXATGA OLINDI"**

**№ VM-343-51409-3.21**

**"1" iyul 2003 y.**

**"TASDIQLANDI"**

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligi**

---

**"8" iyul 2003 y.**

**PEDAGOGIK MAHORAT  
fanidan  
DASTUR**

**Oliy ta'limning 140000 - "O'kituvchilar  
tayyorlash va pedagogika" ta'lim sohasidagi  
5140900 - "Kasb ta'limi" bakalavriat yo'nalishi uchun**

**Toshkent - 2003**

**Tuzuvchi:** dots. Primov M.

**Taqrizchilar:** prof. Quronov M.,  
dots. Babashev F.

"Pedagogik mahorat" fani bo'yicha ushbu dasturda pedagogik mahoratning dolzarb muammolari qamrab olingan bo'lib, ayniqsa iqtisodchi-pedagoglarni shakllantirish imkoniyatlariga asosiy e'tibor qaratilgan.

Dasturda pedagogik mahorat qonuniyatlari, zamonaviy usullari, rivojlanish tarixi va uning o'ziga xos xususiyatlari atroflicha yoritilgan.

В этой программе по предмету "Педагогическое мастерство" определены основные направления педагогического мастерства в образовании.

В программе раскрыты принципы педагогического мастерства, современные усулы педагогического мастерства и его особенности.

In this programme in a subject "The education skill" were defined main direction of educational skill in the formation.

In programme are opened the principles of pedagogical skill, modern methods of pedagogical craftsmanship and its particularly.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (25 aprel 2003 yil 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

## **1. SO'Z BOSHI**

### **O'quv fanni o'qitishning maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi**

Iqtisodiyot oliy o'quv yurtlarida iqtisodchi-pedagoglarni tayyorlash uchun pedagogik mahorat fanini o'rganish benihoyat zarurdir. Chunki har qanday kasbni egallash uchun uning sirlarini mukammal egallamoq, ham mutaxassislarni tarbiyalash va shakllantirish usullarini o'rganmoq kerak.

Pedagogik mahorat fanida pedagogik faoliyat mohiyati, uning eng qulay, samarali usul va vositalari majmui jamlangan. Fanni o'rganishning asosiy maqsadi talabalarni moliyachi-pedagog kasbini mohirlik bilan egallashiga erishishdir.

### **O'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va mahoratlarga talablar**

Moliyachi-pedagog kasbining mohiyatini, tabiatini hamda funktsiyalarini yaxshi bilish. Pedagogik mahorat sirlarini egallash.

Pedagogik mahorat fanini samarali o'rganish uchun talabalar filosofiya, psixologiya, sotsiologiya, iqtisodiyot nazariyasi, moliya, kredit, buxgalteriya hisobiga aloqador bo'lgan fanlarni mukammal o'rganmoqlari hamda ular asosida pedagogik mahorat usulikasini keng miqyosda egallamoqlari kerak.

#### **Seminar mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar minimal miqdoriga talablar**

Pedagogik mahorat fani bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda pedagogika, psixologiya hamda moliyaviy fanlar dasturlaridan, "Internet" tarmog'idagi informatsion banklardan, tarqatma materiallardan foydalanish, fanning zamonaviy muammolarini o'z ichiga olgan mavzular asosida referatlar tayyorlash va hokazolar nazarda tutilgan.

#### **Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi bo'yicha tavsiyalar**

Namunaviy o'quv rejasida mazkur kursga 90 soat hajmda vaqt ajratilgan. Ularning 30 soati ma'ruza, 30 soati seminar mashg'ulotlaridan, 30 soati mustaqil ta'limdan iborat. Mazkur kursni o'zlashtirish natijasida bakalavrlar pedagogik mahorat sohasidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

#### **Bakalavrlar bilimni baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori**

"Pedagogik mahorat" fanidan bakalavrlar bilimni nazorat qilish ikki marta JB, ikki marta OB, bir marta YaB o'tkaziladi. Yakuniy baholash yozma ish shaklida o'tkaziladi.

#### **Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash**

Darslarda "Pedagogik mahorat" fani bo'yicha ko'rgazmali o'quv qo'llanmalari, test namunalari, pedagogik mahoratga doir chet mamlakatlarda chop etilgan ilmiy-usuliy axborotlardan foydalanish rejalashtirilgan.

#### **O'quv dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar**

"Kasb ta'limi" yo'nalishida "Pedagogik mahorat" fani namunaviy o'quv rejasi bo'yicha 7-semestrda o'qitiladi.

## **2. FAN DASTURI**

**Pedagogik mahoratning predmeti va usullari. Pedagogik mahorat fanining predmeti**

Pedagogik mahoratni vujudga keltiruvchi omillar. Mutaxassislik fanini bilish. O'qitish usullari-tushuntirish, so'rash usullaridan xabardor bo'lish, o'quvchilarning mustaqil ishlashini tashkil qilish. Tarbiya usullarini bilish. Pedagogik ta'sir usullari, jamoa bilan va alohida o'quvchilar bilan ishlash usullarini bilish.

Pedagogika, psixologiya va notiqlik san'ati-pedagogik mahoratning nazariy asoslari sifatida.

*Pedagogik mahoratda umumiy va maxsus usullar.*

Pedagogik mahorat fanining iqtisodchi-pedagoglarda mutaxassislik malakasini shakllantirishdagi o'rni.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida pedagoglar mahoratiga qo'yilgan talablar.

### **Pedagogik mahorat tarixi**

Pedagogik mahoratning Sharqdagi va G'arbdagi yo'nalishlari. Ahmad Yugnakiy, Yusuf Hos Hojib, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro ta'limotida ustozlik mahorati to'g'risidagi qarashlar.

Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn-Sino, Amir Temur va temuriylar davrida barkamol insonni shakllantirishda ustozlik mahorati to'g'risidagi qarashlar.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi jadidlar harakati namoyondalarining ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qarashlari.

*G'arb pedagoglarining pedagogik mahorat to'g'risidagi qarashlari.*

XX asr G'arbiy Evropa, Amerika pedagoglari M. V. Kaven, B. Blum, F. S. Kellerlarning pedagogik mahorat fanini rivojlantirishga qo'shgan hissalar.

O'zbekiston pedagoglarining pedagogik mahorat fani ravnaqidagi o'rni. Mustaqil O'zbekistonda o'zbek pedagogik mahorat maktabining shakllanishi.

### **Pedagogik mahoratning psixologik va pedagogik asoslari**

Pedagogik mahorat va o'qituvchi psixologik tayyorgarligining bog'liqligi.

Bilish jarayonlari va oliy nerv faoliyati. Pedagogik faoliyatda oliy nerv faoliyatining qonuniyatlari. O'zaro induksiya qonuni, agarda bosh miyaning biror qismida qo'zg'alish sodir bo'lsa, uning boshqa qismlarida tormozlanish ro'y berishi.

O'zaro induksiya qonunini tushuntirishda shartli reflekslar. Dastlabki nerv qo'zg'alishining bosh miya yarim sharlari po'stlog'ida tarqalishi. Qayta takrorlanishlarda esa differentsial tormozlanish sodir bo'lishi: shartli refleks differentsiallasuvi. Bosh miya yarim sharlarining bir qismi qo'zg'alish holatida bo'lganda uning boshqa qismlarida salbiy induksiya ta'sirida tormozlanish jarayonining sodir bo'lishi.

Irradiatsiya va o'zaro induksiya ta'sirida nerv jarayonlarida qo'zg'alish va tormozlanishning almashinuvi.

*Pedagogik mahoratda diqqat va o'zaro induksiya qonuni.* Materialni o'zlashtirishda o'quvchi diqqatini jalb eta olish. Diqqatning jalb etilmasligi o'quvchi ongida tormozlanishga olib kelishi.

Dinamik stereotip qonuni. Bosh miyaning biror qismida tez-tez, doimiy qo'zg'alishlar hosil bo'lganda uning boshqa qismlarida huddi shunday doimiy tormozlanish o'choqlarining hosil bo'lishi-qo'zg'alish va tormozlanish o'choqlarining barqaror taqsimlanishi ro'y berishi.

Agarda o'quvchi biror-bir predmet bilan doimo, muntazam shug'ullansa, unda bosh miyaning muayyan qismlarida barqaror bog'lanishlar, doimiy tayyorgarlik, engil qo'zg'aluvchanlikning sodir bo'lishi.

Aksincha jarayon. Agarda o'quvchi biror-bir predmet bilan doimo shug'ullanmasa, unda bosh miyaning ushbu qismlarida tormozlanish o'choqlari hosil bo'lishi, o'quvchining qoloqlashuvi, bilimlar, tasavvur etish, qiziqish va xotira tezkorligining pasayishi.

Dinamik stereotipni o'zgartirishning o'ta murakkabligi. Uni o'zgartirishda iroda, qat'iyatlik, maqsad, bartaraf eta olish qobiliyati, ko'plab mashqlar bajarish, doimiy kuch sarflash zarurligi.

*Yoshlikda dinamik stereotipning nisbatan engil hosil bo'lishi va o'zgarishi, katta yoshda o'zgarishning og'ir kechishi, juda ko'p kuch sarf etish talab etilishi.*

### **O'quvchilar bilish faoliyatining ba'zi bir jihatlari**

O'quvchilarning o'rganishfaoliyatidagi qayta takrorlanuvchi, reproduktiv bilish. Nazariy materialni o'zlashtirish va topshiriqlarni echish, olingan bilimlarni amaliyotda belgilangan namunada yoki xatti-harakatlar algoritmi asosida qo'llash.

*O'quvchilarning ijodiy bilish faoliyati.* Nazariy materialni o'zlashtirish jarayoni va mustaqil izlanish, oldindan ko'ra bilish va prognoz qilish elementlari asosida amaliyotda bilimlarni qo'llash bo'yicha topshiriqlarni echish.

O'quvchilar o'quv-bilish faoliyatiga mos holda ikki turdagi axborotlar: reproduktiv va prognoz axborotlari.

Reproduktiv axborot-o'quvchi tomonidan tayyor holda o'zlashtiriladigan axborotlar sifatida. Kelib tushayotgan axborotning o'quvchi ongida qayd etilishi va uni nutq amaliyotida qaytarish.

Prognoz axborotlari-o'quvchi tomonidan o'quv materiallari kelib tushgunga qadar yaratiladigan axborotlar sifatida. Bunda o'quvchining ushbu bilimlarni yaratishi, uni ishlab chiqish yo'llarini ongida va o'z tashqi nutqida qayd etishi, so'ngra o'z bilimlarini aniqlashtirib bo'lgach, bu bilimlarining to'g'riligini etalon namuna bilan taqqoslashi.

*Prognoz koeffitsienti.* Butun axborot tayyor holda o'zlashtirilganda prognoz koeffitsientining nolga yaqinlashuvi, axborotning yarmini izlanishlar asosida tinglovchilar yaratishganda prognoz koeffitsientining 50% ni tashil etishi va oshib borishi qonuniyati.

Materialni oldindan yaratish bosqichlari: tavsiflash, tushuntirish, qoidalarni keltirib chiqarish va ularni amaliyotda qo'llash tartibi, g'oyalarni ifodalash, ularni ma'no va mazmun jihatidan tartibga solish.

### **Pedagogik mahoratda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qobiliyatlarini hisobga olish va ularga individual yondashish**

O'quvchilarning yosh xususiyatlari to'g'risidagi Aristotel, Ya. A. Komenskiy, J. J. Russo, A. Disterveg, K. D. Ushinskiy tasniflari.

*Pedagogik jarayonlarning yosh jihatidan zamonaviy tasnifi.*

Kichik maktab yoshi, o'smirlik va yoshlikning birinchi davrlarining umumiy tavsifi va rivojlanishdagi psixologik-pedagogik ustivorliklar.

### **Pedagogning professional pozitsiyasi va shaxsiy fazilatlari**

Pedagogning professional pozitsiyasi-o'z kasbining maqsadini anglashdan kelib chiqadigan xulq-atvor sifatida. Professional pozitsiya turlari:

Birinchi pozitsiya - masofaviy: "uzoq", "yaqin", "birga".

Ikkinchi pozitsiya - mavqe darajasiga ko'ra: ustun qo'yish, quyi tutish, hamkorlik.

Uchinchi pozitsiya-faoliyatda egallagan o'rniga ko'ra: "oldinda", "orqada", "birgalikda".

Pedagogga qo'yiladigan talablar: ishchanlik sifatlari, shaxsiy sifatlar, pedagogik mahorat.

*Ishchanlik sifatlari.* Ishda maqsadga intilish, tashkillashganlik, talabchanlik, konkretlilik, ishchanlik, muntazamlilik, qat'iyatlilik.

*Shaxsiy sifatlari.* Fuqarolik pozitsiyasi, axloqiy sofligi, printsiptiallik, yoshlarni va pedagogik faoliyatni sevish, pedagogik marom (takt), pedagogik ko'tarinkilik, ishga ijodiy yondashish.

Pedagogik mahorat-pedagogik e'tiqodlarga tayangan pedagogik malakalarning yuksak darajasi sifatida.

### **Pedagogik mahorat ko'rsatkichlari**

Pedagogik mahorat ko'rsatkichlari to'g'risida umumiy tushunchalar. Pedagogik mahorat ko'rsatkichlari.

Pedagogik yo'nalganlik. Insonning o'z-o'zini mukammallashtirishga intilishi, o'zgalarni tushunishga intilish, hamkorlikda ishni tashkil etishga qiziqish, o'z-o'zini ko'rsatishga intilish.

Professional bilimlar. Psixologiya. Pedagogika, muayyan fan. Muayyan fanni o'qitish usulikasini bilish.

Pedagogik qobiliyatlar. Muomalalilik. Kuzatuvchanlik. Emotsional barqarorlik. Prognoz qila olish.

Pedagogik texnika. Nutq texnikasi. Pantomimika texnikasi, o'z-o'zini sozlay olish texnikasi. *Tashkilotchilik texnikasi, pedagogik ta'sir texnikasi, kontakt o'zaro ta'sir texnikasi.*

### **Darsga tayyorgarlik ko'rish va uni tashkil etish**

Darsni loyihalashtirish. Darsni loyihalashtirishda o'quvchilarning umumiy xususiyatlari, yosh xususiyatlari, tayyorgarlik darajasiva qo'yilgan maqsadlarni hisobga olish.

Darsga tayyorgarlik ko'rishdagi 3 ta bosqich:

1. Dasturdagi materiallarning tayanch mavzulari bo'yicha oldindan keng miqyosdagi ilmiy tayyorgarlik ko'rish.
2. Mavzu bo'yicha reja tuzish.
3. Teskari aloqa (nazorat) tamoyillarini ishlab chiqish.

1-bosqichning o'qituvchini yozgi ta'tildagi bo'sh vaqtlarida olib borilishi. 2-bosqich mavzu o'tilishidan 1 oy oldin tuzilishi. O'quvchi eslab qolishi va bilishi lozim bo'lgan qonunlar, qoidalar, formulalar, tarixiy sanalar va voqealar, nomlar va atamalarni belgilash. O'quvchi qanday ko'nikmalarga ega bo'lishini (o'quv va mehnat ko'nikmalari) belgilash. Olingan bilim va ko'nikmalardan qaerda va qanday foydalanishga o'rganish.

3-bosqichning asosiy joriy va umumlashtiruvchi savollarini, nazorat va yozma ishlarni belgilash. Uy vazifalari va sinfdan tashqari qo'shimcha ishlarni belgilash (maxsus adabiyotlar, konspektlar, dokladlar).

Muayyan dars rejasining namunaviy modeli. Dars rejasini tuzishda quyidagi 5 ta holatga e'tibor qaratish zarurligi:

1. Dars maqsadi va vazifalari, o'quvchilar nimalarni eslab qolishlari, o'zlashtirishlari va qanday ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerakligini belgilash;
2. Dars mavzusi va uni bayon etish rejasini belgilash;

3. So'rov o'tkazish bo'yicha savollarni tuzish. Savollarni (vazifalar, topshiriqlar, kartochkalar) oldindan belgilab qo'yish va ularning echimlari variantlarini ilova qilish;
4. O'quvchilarning mustaqil ishlashi uchun topshiriqlarni tayyorlash;
5. Uyga vazifa, uni bajarishga ketadigan vaqtni belgilab qo'yish.

*Darsni tashkil etish. Darsni tashkil etishda o'quvchilardagi individuallik.*

So'rov, tushuntirish, mustaqil ish, mustahkamlash, uyga vazifaga qancha vaqt ketishini oldindan taxminan belgilash. Texnik vositalar, o'quv qo'llanma, didaktik material kartochkalardan qaerda, qanday foydalanishni belgilash.

### **Yangi materialni tushuntirish**

Yangi materialni tushuntirishning uchta usuli. Axborot- reproduktiv usul. Tushuntirish-reproduktiv usuli. Muammoli ta'lim berish.

Axborot reproduktiv usuli o'zlashtirishning birinchi darajasi sifatida. O'qituvchining o'quvchilarga faktlar, qoidalar, qonunlar, voqealar, asarlar mazmuni, biografik ma'lumotlar, sanalar, formulalar, teoremlar to'g'risida ma'lumot berishi. O'quvchining vazifasi - faktik materialni eslab qolish, uni tushunish, qaytara olish.

Axborot-reproduktiv usulda materialni tushuntirish shakllari: hikoya, ma'ruza, darslikdan o'qib berish, asarlardan parchalar, predmetlar, sxema, rasmlar, o'quv filmlarini namoyish qilish.

Tushuntirish-reproduktiv usuli. *Faktlarni tushuntirishda ularning sabab-oqibat aloqalarini ochib berish.* O'quvchilarning o'qituvchi tushuntirayotgan voqeani faqat tushunibgina qolmasdan, balki ularni tushuntira olishi, izohlab, mohiyatini ochib bera olishi.

Tushuntirishning o'quvchilar dunyoqarashi, tafakkuri va olamga ongli munosabatini shakllantirishdagi o'rni.

O'quvchilar tinglashini faollashtirishda muammoli ta'lim.

Muammoli ta'limning xarakterli belgilari. O'qituvchi tomonidan isbotlanishi, echilishi va tushuntirilishi lozim bo'lgan muammo (savol, g'oya, qoida) ning ilgari surilishi.

O'quvchilar tomonidan gipotezalar (taxminlar, echimlar, echish usullari) ilgari surilishi.

Gipotezalarning isbotlanishi va asoslanishi (tushuntirilishi, misollar keltirilishi, tajribalarda ko'rsatilishi, adabiyotlar o'rganilishi, qo'shimcha materiallar o'rganilishi, teoremlar va tadqiqot natijalarini jalb etilishi).

Muammoli ta'lim usullari.



O'qituvchining muammoni o'rtaga qo'yishi va uni o'zi echishi. O'quvchilarning bu jarayonni kuzatib turishi va unda qandaydir darajada ishtirok etishi.

O'quvchilarni muammoli ta'limdagi izlanish ishlariga qisman jalb etish. Izlanish ishlarida qisman ishtirok etish faqatgina o'quvchilar faolligini oshirmasdan, balki tafakkur bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi va kerakli natijalarni ta'minlashi.

*Izlanishning to'liq mustaqil usuli.* O'quvchining bu jarayonda mustaqil xulosa qilishi, tahlil qilishi, nostandart vazifalarni echishi, tajribalar o'tkazish asosida xulosalar qilishi, birinchi manbalarni, maxsus adabiyotlarni o'rganib, ular asosida ma'ruzalar, tezislar, referatlar tayyorlashi.

O'qituvchining bu jarayonda tashkilotchi sifatida ishtirok etishi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi. Izlanishning to'liq mustaqil usulini har doim qo'llash nojoizligi. ITMU uchun muayyan tayyorgarlik ko'nikmasiga ega o'quvchilar, materialning mos kelishligi, baza (priborlar, adabiyolar) talab qilinishi.

### **Ma'ruza tarkibi va uni o'tkazish usullari**

Ma'ruzaning kitoblar, manbalar kam bo'lgan davrlarda bilim olishdagi etakchi usul bo'lganligi.

Ma'ruzaning hozirgi kundagi ahamiyati. Ma'ruzada o'qituvchining bir nechta rollarda chiqishi:

- olim sifatida, hodisa va faktlarni ko'rib chiquvchi va ularni tahlil etuvchi;
- pedagog sifatida, dunyoqarash, ishga munosabatni tarbiyalovchi va o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanuvchi;
- notiq sifatida, tinglovchilarni targ'ib etuvchi va ularni ishontiruvchi;
- psixolog sifatida, auditoriyaning butun ruhiyatini va har bir tinglovchi ruhiyatini his eta oluvchi.

*Ma'ruzaning funktsiyalari.* Axborot (o'quvchilarga zaruriy ma'lumotlar berish), rag'batlantirish (mavzuga qiziqish uyg'otish, boshqa manbalarni o'rganishga chaqirish), tarbiyalash va rivojlantirish (hodisalarga baho berish, tafakkurni rivojlantirish) funktsiyalari.

Ma'ruzaning asosiy jihatlari.

Tashkiliy jihatlari. Soatlar miqdori, ma'ruza va seminar mashg'ulotlari nisbatini aniqlash.

Didaktik jihatlari. Ma'ruza rejasini ishlab chiqishi, ma'ruza turini tanlash (kirish, obzor, muammoli, umumlashtiruvchi) ko'rgazmali vositalar namoyish etish, auditoriya darajasini hisobga olish.

Uslubiy jihatlari. Alohida ma'ruzalarni ishlab chiqish, o'quv va tarbiya vazifalarini qo'yish, konkret materialni tanlash, mantiqiy apparatni aniqlash, eksperimentni namoyish etish uslubini ishlab chiqish, ko'rgazmalilik, texnik vositalarni qo'llash, amaliyotdan faktlar kiritish, ma'ruzaning seminar va amaliy mashg'ulotlarda aks etishini hisobga olish.

Ma'ruzaning tarkibiy qismlari: kirish qismi, materialni bayon etish, xulosa, savollarga javoblar.

Kirish qismi. Mavzuni e'lon qilish, vazifalarni ifodalash, muammoni qisqa tavsiflash, savollar holatini yoritish, ma'ruzaga doir adabiyotlarni aytish, o'tgan mashg'ulotlar bilan aloqasini ko'rsatish.

Materialni bayon qilish. Faktlarni tahlil qilish, zarur axborotlarni keltirish, shakllangan tajribani tahlil qilish, ma'lumotlarni qaerdan izlash kerakligi to'g'risida axborot berish, o'z pozitsiyasini e'tirof etish, mavjud amaliyot va ilmiy tadqiqotlarga baho berish, amaliyot va hayot bilan bog'lanishini ko'rsatish, rivojlanish istiqbollari ochib berish, ushbu masala bo'yicha ilmiy izlanishlarni ko'rsatish.

Xulosa qilish. Asosiy xulosalarni bayon qilish, kelgusidagi mustaqil ishlarga doir uslubiy maslahatlar berish.

Savollarga javob berish.

Ma'ruza turlari va ularni o'tkazish usullari.

Ma'ruzalarning tiplari.

Umumiy maqsadlarga ko'ra: targ'ibot, tashviqot, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi.

Mazmuniga ko'ra: akademik, ommaviy.

Didaktik vazifalariga ko'ra: kirish, joriy, yakuniy-umumlashtiruvchi, yo'nalish beradigan va tahliliy.

Ta'sir etishiga ko'ra: hissiyotlarga ta'sir etish darajasidagi, tushunish darajasidagi, e'tiqodlar darajasidagi.

Ma'ruzani etkazib berish shakli:

- tovushlarning o'rni;
- mimika va qo'shimcha qo'l harakatlari;
- tayyorgarlik ko'rish (oyna va magnitafon oldida) soatlar bilan o'lchagan holda, butun mavzuni yoki uning alohida qismlarini mashq qilish.

Auditoriyani tashkil etish.

Ma'ruzani boshlash: mavzuni e'lon qilish, ma'ruzaning ahamiyatini asoslab, maqsad va vazifalarini aniq ajratib ko'rsatish, talabalarga mavzu, reja va adabiyotlarni yozdirish. Ma'ruza o'qishda rioya etilishi lozim bo'lgan qoidalar. Reja bo'yicha o'qish. Darslikda yaxshi yoritilmagan qismlarni alohida ajratib yozdirish, har bir savolni intonatsiya bilan

ajratib ko'rsatish, har bir savolda asosiylarni (eslab qolish lozim bo'lganlarni), ikkinchi darajalilarni (namoyish etish uchun), qiziqarli va qiziqarli emaslarni (qiziqarli ko'rsatish), murakkab va oddiylarni (ahamiyat berib ko'rsatish) ajratib ko'rsatish, atamalarni aniq talaffuz etish va doskaga yozish, har bir haqiqatni har bir o'quvchiga etib borishiga erishish, auditoriya munosabatini his etish va tushunish, ma'ruzaning har bir kichik qismidan so'ng iloji boricha teskari aloqa tamoyilidan foydalanish.

### **Bilimlarni nazorat qilish usullari**

Teskari aloqa tamoyili-ta'lim jarayonidagi nozik jihatlardan biri sifatida. *Teskari aloqa (nazorat) tamoyilidagi muammolar.* So'rov vaqtida butun guruhning samaradorlik (produktiv) bilan ishlashini ta'minlash. So'rov o'tkazilayotganda talabanning qo'yilgan masalaga to'la javob berishiga erishish.

So'rov-o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda birinchi bor tekshirish usuli sifatida. So'rovni bevosita o'qitish jarayonida o'tkazishga erishish. So'rovni nazorat maqsadida emas, balki kerakli ko'nikmalarni va yangi bilimlarni egallashdagi mustaqil ish sifatida o'tkazish. Mustaqil ish sifatida o'tkazilgan so'rovning talabalar mustaqilligini rivojlantirishi, olingan bilimlarini mustahkamlashi, ta'lim jarayonini faollashtirishi.

Bilimlarning to'planishiga ko'ra so'rov miqyosining kengayib borishi, ya'ni so'rovning fundamentallashib, asosliroq bo'la borishi. So'rov jarayonida talabalar shaxsiy mulohazalarini inobatga olish.

Teskari aloqani amalga oshirish yo'nalishlari: materialni tushuntirish vaqtida, boblar va kichik mavzular o'tib bo'lingandan so'ng.

Materialni o'zlashtirish bo'yicha yakuniy tekshirish (boblar, qismlar, choraklar, yarim yillik, yillik bo'yicha).

So'rov usullari: individual so'rov, ommaviy so'rov, aralash so'rov, yozma nazorat ishlari.

Individual so'rov. Afzalliklari: Butun guruh va o'qituvchi bir kishini tinglashi, javob og'zaki, to'liq, mustaqil bo'lishi. Javobni baholashni odatda xatosiz bo'lishi. Butun javob sifatining (faktik materialni bilishi, bayon etishda mantiqiy izchillik, ifodalilik, til aniqligi) baholanishi. Kamchiliklari: bir vaqtda bitta talaba javob bera olishi, bitta darsda ko'pchilik talabani so'rab bo'lmasligi, rejalar va tezislarni tuzishni tekshirib bo'lmasligi, vazifalarni echish va amaliy bajarishni tekshirib bo'lmasligi, eng qiyini barcha talabalarni bir vaqtda jalb etish imkoni yo'qligi.

*Individual so'rov o'tkazishda butun guruhni jalb etish usullari:*

1. birinchi usul-savol qo'yilishi va barcha talabalarga javob variantini yoki vazifani echish taklif etilishi. So'ngra bitta talaba chaqirib so'raladi, qolganlari esa reja bo'yicha kuzatadilar va o'z xatolarini to'g'rilab, kamchiliklarini to'ldiradilar;

2. ikkinchi usul-talabaga savol bayon etilib, o'ylashga vaqt berilishi. So'ngra bitta talabaning javob berishi. Talabalarga xato va kamchiliklarni daftarda belgilab borish taklif etilishi.

Ommaviy so'rov. Darsdagi nazorat so'rovi, o'quv materialini o'zlashtirish darajasini tekshirish, har bir javobga baho qo'yilishi. Ommaviy so'rovni o'ta aniqlikda, izchillikda o'tkazish.

Afzalliklari: tekshirishda ko'p talabalarni qamrab olish mumkinligi, qisqa va aniq javob berish ko'nikmasini shakllantirish, mavzuning muhim jihatlariga e'tibor qaratilishi va ularni eslab qolishning rivojlanishi, mavzu bo'yicha savollarga reja bo'yicha to'la javob berishga o'rganish, talaba diqqatining bir joyga jamlanishi.

Kamchiliklari: javoblarning juda qisqaligi, batafsil javob berish ko'nikmasini rivojlantirmasligi, qiyin savollarga javob berishda bir fikrdan ikkinchisiga o'tish ko'nikmasi shakllanmasligi, talaba bilimining qanchalik chuqurligini ko'rsatmasligi, mantiqiy va nutq madaniyatini etarlicha rivojlantirmasligi.

Aralash so'rovning mohiyati. Bir vaqtda 3-4 ta talabaning chaqirilishi. Bittasini og'zaki javob berishi, qolganlari doskada yoki o'tirib yozma javob berishi.

Afzalliklari. 20-25 minutda 5-10 kishidan so'rov o'tkazish imkonini berishi. Kisqa vaqtda butun bob bo'yicha ko'pchilikning bilimni tekshirish imkonini berishi.

Kamchiliklari. Bir vaqtda bir nechta talaba so'rov o'tkazish uchun chaqiriladi, qolganlari esa go'yoki chetda qoladi. O'qituvchi bir vaqtda ham javob beradiganlarni, ham butun guruhni kuzatib turishiga to'g'ri keladi. Savollarga javob berish bir tekisda bormaydi.

Yozma nazorat ishlarining mohiyati va maqsadi. Butun guruh bilimlarini mazkur mavzu bo'yicha tekshirish imkonini berishi, talabalarning sistemali holda uzluksiz ishlashi rag'batlantirilishi, materialni yozma holda qisqa bayon etish ko'nikmalarining shakllantirilishi.

Teskari aloqada test usuli va boshqa yordamchi usullar.

Talabalar javoblari ustida ishlash usullari. O'qituvchining o'zi namuna sifatida qo'yilgan savolga to'la javob berishi, talabalarning buni darhol takrorlashi, ba'zi hollarda savolga javob berishda darslik, daftar va o'quv qo'llanmalaridan foydalanishga ruxsat berish. Talaba javobidan so'ng uni batafsil tahlil etish, qo'shimchalar qilish, tildagi va bayon etishdagi mantiqiy xatolarni tuzatish, u yoki bu savolga tez-tez qisqa yozma javoblar yozdirish, talabaning javobini qisqacha tahlil qilish.

Sistemali nazorat qilish maqsadida mavzular bo'yicha javoblar hisobini olib borish. Har bir mavzu bo'yicha maxsus tekshirishning qo'shimcha vaqt talab qilishi. Ko'p vaqt sarfini talab qilmaydigan, aralash usullardan foydalanish texnikasi.

Har bir mavzudan so'ng nazorat ishlari yoki umumlashtiruvchi so'rovlar o'tkazish. Mavzu bo'yicha xato va kamchiliklar tugatilmaguncha qayta tekshirish.

Tekshirishning eng oddiy va samarali usullari-talabalar daftarini auditoriyada tekshirish, bu vaqtda ularning boshqa topshiriqlarni bajarishi:

- o'zaro tekshirish (talabalar bir-birining daftarini tekshirishadi, iloji bo'lsa anonim holda);
- darsgacha assistentlar tomonidan tekshirish;
- darsdan so'ng tanlab yoki hammasini tekshirish;
- so'rov vaqtida uy ishini tekshirish, bunda o'quvchilar daftarini doskaga olib chiqishadi.

### **Mustaqil ishlashga va bilishga o'rgatish usullari**

Mustaqil ishlashning mohiyati. Mustaqil ishlashning maqsadlar qo'yilishi va rejalashtirishga ko'ra turlari:

- o'qituvchi yordamida maqsadlarning qo'yilishi va rejalashtirilishi;
- o'qituvchi yordamida maqsadning qo'yilishi, ishni rejalashtirish talaba tomonidan mustaqil amalga oshirilishi;
- o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlar asosida talaba tomonidan maqsadning mustaqil qo'yilishi va mustaqil rejalashtirilishi;
- ish talaba tomonidan o'z tashabbusiga ko'ra amalga oshiriladi, o'qituvchi yordamisiz, talaba tomonidan mustaqil holda ishning mazmuni, maqsadi va ish rejasi qo'yiladi va amalga oshiriladi.

Namunalar asosidagi mustaqil ishlar. Vazifani echishdagi ma'lum bir usulni o'xshash vaziyatda bir predmet doirasida qo'llash.

*Namunalar asosida mustaqil ishni bajarishda vazifani echishning ma'lum bir usulini o'xshash vaziyatda predmetlararo doirada qo'llash.*

Rekonstruktiv-variativ mustaqil ishlar. Vazifani echishning ma'lum bir usuli modifikatsiyasini biroz o'zgartirgan holda, nostandart vaziyatda bir predmet yoki predmetlararo doirada qo'llash.

Bir predmet yoki predmetlararo doiradagi izlanish ishlari.

Rekonstruktiv-variativ mustaqil ishlarning xususiyatlari. Nostandart vaziyatni tahlil qilish. Ushbu vaziyatlarda yuzaga kelgan o'quv muammolarining xarakterli belgilarini aniqlash. Ushbu muammolarni echish usullarini izlash. Aniqlangan echimlardan eng

oqilonasini tanlash va uni mazkur vaziyat shart-sharoitlariga muvofiq holda modifikatsiyalash.

Mustaqil ishlashni tashkil etish usullari.

Yangi materialni o'zlashirish jarayonida mustaqil ishlashga jalb etish. Darsning tarkibiy qismi sifatidagi mustaqil ish. Mustaqil ishlashni tashkil etishda o'yinlardan foydalanish. Talabalarning yakka tarkibdagi mehnatiga bag'ishlangan mustaqil ishlar: takrorlash, bilimlar, ko'nikma va malakalarni tekshirishga qaratilgan mustaqil ishlar.

### **Uyga vazifalar va qo'shimcha mavzularni o'rganish**

Uyga vazifalar berishda ularning hajmini va bajarishga ketadigan vaqtni hisobga olish.

*Dars rejasida uyga vazifani bajarishga qancha vaqt etishini ko'rsatish.*

Uyga vazifalarni o'qituvchi yoki tashabbuskor, faol talabalar yordamida faol tekshirib borish.

Bahs-munozara va disputlar jarayonida talabalarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Dars samaradorligi va noan'anaviy darslar.

Og'zaki jurnal. Talabalar mashhur iqtisodchilar biografiyasi va ijodi to'g'risida ma'ruza tayyorlashadi va so'zlab berishadi. Talaba va talabalar guruhidan olingan ekspert guruhi savollar berib aniqlashtiradi.

Referatlar himoyasi. Alohida savollar bo'yicha talabalar referat tayyorlashadi, va muallif opponentlar savollariga javob beradi.

Sirdan sayohat darslari. Ekskursiya darslari. Ijodiy hisobot darslari.

### **Ta'lim jarayonidagi tarbiyaviy ishlarga individual yondashish**

Talabalar bilan individual ish olib borishning mohiyati.

Pedagoglar muvaffaqiyatsizligi ko'pchilik hollarda o'quvchilar ruhiy olamiga kira olmaslik, kirishni hohlamaslik bilan bog'liqligi.

Individual yondashishda keng tarqalgan xatolar:

1. birinchi xato-talaba oilasining, uydagi tarbiyaning xususiyatlarini hisobga olmaslik;
2. ikkinchi xato-talabalar ruhiy xususiyatlari, qiziqishlari, xarakeri, temperamenti, diqqati, odatlarini hisobga olmaslik;
3. uchinchi xato-talabalar xato qilganda, sabablarini surishtirmasdan jizzakilik, chidamsizlik va keskinlikka yo'l qo'yish;
4. to'rtinchi xato-tarbiyaviy ishlarga rasmiyatchilik bilan yuzaki yondashish, o'qituvchi hatti-harakatlarida muvofiqlikni yo'qligi, umumiy gaplar bilan cheklanish.

Talabalarni tarbiyalashda mehribonlik, ko'ngillilik, qat'iyatlilik va talabchanlik.  
*Shafqatsizlik, yomonlik, ko'ngilchanlik, o'ta yumshoqlik, erkatoqlik bilan tarbiyalab bo'lmaslik.*

Pedagogik ta'sir usullari.

Ishontirish, o'rgatish (to'g'ri hatti-harakatlarni amalga oshirishni, masalan, uy ishini bajarish, muayyan ko'nikmalarga o'rgatish), buyurish (to'g'ridan-to'g'ri talab, ko'rsatma berish), rag'batlantirish, jazolash. Jazolash turlari: ogohlantirish, hayfsan berish, majlisda muhokama qilish, ota-onalarini chaqirish, pedagogik kengashga chaqirish va hokazo.

*"Mikroreaktsiya"-usuli o'quvchi yoki sinfning u yoki bu qilig'iga tezkor ta'sir, bevosita ta'sir ko'rsatish usuli.* O'qituvchining noto'g'ri reaksiyasining talabani darsdan chalg'itishi, hattoki darsni buzishi. Ko'pchilik nizolarning kelib chiqishida o'qituvchilarning asosiy rol o'ynashi to'g'risida psixologlarning fikri. O'tkir nizoli vaziyatlarda keskin harakat qilmasdan, talabani darsdan chalg'itmasdan xatosini tuzatishga ko'maklashish. Darsdan so'ng individual suhbatlashish.

"Tartib-qoidalar" usuli. Dars jarayonida odatdagi usullar ta'sir qilmaydigan, tarbiyasi qiyinroq talabalarni aniqlash. Ularni shaxsiy sharoitlarini chuqur o'rganish. Ularni erga urmasdan, nafsoniyatiga tegmasdan predmetni o'zlashtira olishiga ishontirib, yordam ko'rsatish. "Tartib-qoidalarni" buzuvchi talabalarga darsda qo'yilgan talablarni tushuntirish va ularni ko'proq dars jarayonida faol mashg'ulotlar va mashqlar bilan band etish.

Dangasa talabalarni aniqlash va ularni muntazam nazorat qilish usullari.

### **Pedagogik mahoratni egallashning ba'zi bir jihatlari**

Pedagogik mahoratning ilmiy asoslangan ob'ektiv ko'rsatkichlari.

*Xaqiqatda iste'dodli o'qituvchilarning 12% ga yaqinni, mahoratli o'qituvchilarning 67% ni tashkil etishi. (N.T. Kuzmina tadqiqotlari natijasi).*

Pedagogik mahoratga ega o'qituvchilarning pedagogik sifatlari: o'quv materiallarini oson tushuntirish qobiliyati, ta'lim usullarini ijodiy qo'llash, talabalarga irodaviy ta'sir ko'rsatish, talabalar jamoasini tashkil eta olish qobiliyati, talabalarga qiziqish, nutqning yorqinligi, hayot bilan bog'lash, pedagogik talabchanlik, sinfdan tashqarida ishlash qobiliyati.

Qo'shimcha shaxsiy sifatlar: intizomlilik, qiziquvchanlik, mehnatsevarlik, o'z-o'zini boshqarish, faollik, qat'iyatlilik, emotsionallilik, yuksak axloqiylik.

Bu sifatlarni o'qituvchi xarakterida shakllantirish va ularni uzviy egallash.

Talabalarning o'qituvchilarda qadrlaydigan sifatlarini bilish bo'yicha sotsiologik so'rov o'tkazish.

O'quv yurtidagi ish vaqti. O'quv yurtidan tashqaridagi ish vaqti. Bo'sh vaqti. Transport, yo'l, sport va madaniy ehtiyojlarni qondirish, dam olish va uyqu.

Aqliy mehnat fiziologiyasi va gigienasi qonunlariga rioya qilish. Ortiqcha zo'riqish xavfliligi, o'qituvchi faoliyatining kuchli emotsional holatlar va asab zo'riqishlari bilan bog'liqligi.

Ovqatlanish menyusining xilma-xilligi, ayniqsa  $V_1$ ,  $V_{12}$  vitaminlarga boy mahsulotlarni iste'mol qilish. Faol dam olishning muhimligi.

Mashg'ulotlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish va paketlar (papka, kartochkalar to'plami, konvertlar va h. k.) yuritish.

Birinchi paket-konkret materiallarni to'plab borish. Har bir mavzuga oid papka va konvertlar tutish va uni doimo to'ldirib borish.

Ikkinchi paket-bibliografiya, kartochkalarni aniq va muntazam to'ldirib borish.

Uchinchi paket-mavzular bo'yicha rejalashtirish va uslubiy qo'llanmalar tuzish, turli uslubiy qo'llanmalardan qiziqarli ko'chirmalar olish.

To'rtinchi paket-dars bo'yicha rejalashtirish, didaktik materiallar to'plab borish.

Beshinchi paket-ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha materiallar to'plab borish, tarbiyaviy ishlar bo'yicha adabiyotlar ro'yxatini yig'ib borish.

### **3. SEMINAR MASHG'ULOTLARINING MAVZULARI**

#### **Pedagogik mahorat fan va san'at sifatida**

Pedagogik mahorat omillari. Pedagog mahoratning nazariy asoslari.\* Iqtisodiyot fanlarida pedagogik mahorat. Pedagogik mahorat fan va san'at sifatida.

#### **Pedagogik mahorat tarixidagi yo'nalishlar**

Ilk tarixdagi yo'nalishlar. IX-XIV asrda Markaziy Osiyoda pedagoglik mahoratini rivoji.\* XIX-XX asr boshlarida jadidlik harakati va pedagoglik san'ati. Yangi davr va XX asr boshlarida va ikkinchi yarmidan so'ng pedagoglar mahoratiga oid qarashlarning rivojlanishi.

#### **Pedagogik mahoratning psixologik asoslari**

O'qituvchining psixologik tayyorgarligi. ONF da o'zaro induksiya qonuni. Dinamik stereotip qonuni.\*

#### **Reproduktiv va produktiv bilish jarayonlari**

Reproduktiv bilishning afzalliklari va kamchiliklari. Produktiv (prognoz) bilishning afzalliklari va kamchiliklari.\* Prognoz koeffitsienti.

#### **Yosh davrlari xususiyatlari**



Aristotel, Ya.A.Komenskiy, J.J.Russo, A.Disterverg, K.D.Ushinskiylarning yosh davrlariga tasnifi. Yosh davrlarning zamonaviy tasniflari.\*

### **Pedagogning professional pozitsiyasi**

Professional pozitsiya turlari va xususiyalari.\* Pedagogning ishchanlik va shaxsiy sifatlarga qo'yiladigan talablar.

### **Pedagogik mahorat ko'rsatkichlari**

Pedagogik yo'nalganlik.\* Professional bilimlar. Pedagogik qobiliyatlar. Pedagogik texnika. Mahorat ko'rsatkichlarini egallash ko'nikmalarini shakllantirish.

### **Darsga tayyorgarlik ko'rish va tashkil etish**

Loyihalashtirish. Loyihalashtirish omillari. Darsga tayyorgarlik ko'rish bosqichlari va xususiyatlari.\* Dars rejasining namunaviy modeli.

### **Yangi mavzuni tushuntirish**

Mavzuni tushuntirishdagi an'anaviy usulning xususiyatlari afzalliklari, kamchiliklari. Muammoli ta'lim xususiyatlari.\* Muammoli ta'lim usullari. Materialni tushuntirish usullari.

### **Ma'ruza darslarini o'tish texnikasi**

Ma'ruzada o'qituvchining rollari. Ma'ruzaning funktsiyalari. Ma'ruzaning tashkiliy, didaktik, uslubiy jihatlari.\* Ma'ruzaning tarkibiy qismlari. Ma'ruzalarning tiplari. Ma'ruzani amalga oshirish.

### **Bilimlarni baholash va monitoring**

So'rov baholash usuli sifatida. So'rovni o'tkazish texnikasi. So'rov usullari. Individual, ommaviy, aralash so'rovlar, ularning afzalliklari va kamchiliklari.\*

Yozma nazorat ishi. Afzalligi va kamchiliklari. Testlar usuli. Afzalligi va kamchiliklari. O'quvchilari javoblari ustida ishlash.

### **Mustaqil ishlash**

Mustaqil ishlash turlari. Namunalar va rekonstruktiv variativ mustaqil ishlar.\* Mustaqil ishlashni tashkil etish usullari.

### **Uyga vazifalarni o'rganish va noan'anaviy darslar**

Uyga vazifalar berishda bajarilish vaqtini hisobga olish.\* Uyga vazifalarni tekshirish usullari.

Noan'anaviy darslar. Og'zaki jurnal. Referatlar himoyasi. Sayohat, ekskursiya va ijodiy hisobot darslari.

### **Ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish mahorati**

Talabalarga individual yondoshishda keng tarqalgan xatolar.\* Talabalarni tarbiyalashdagi ijobiy va salbiy xislatlar. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari. Mikroreaktsiya va tartib-qoidalar usuli.

### **Pedagogik mahorat xislatlari**

Pedagogik mahoratiga ko'ra o'qituvchilarning toifalarga bo'linishi. Pedagogik mahoratdagi ijobiy pedagogik sifatlar. Bu sifatlarni egallash ko'nikmalari.\* O'qituvchilarda talabalar qadrlaydigan sifatlar.

O'qituvchi vaqtining taqsimoti va ish vaqti tarkibi. O'qituvchi mehnati fiziologiyasi va gigienasi.

Darslarga materiallar to'plab borish va ularni tizimlashgan holda tartibga solish.

## **4. INFORMATsION-TEXNIK VOSITALAR**

Ko'rgazma-namoyish materiallar ro'yxati:

- Pedagogik mahoratning ilm-fan amaliyot bilan bog'liqligini namoyon qiluvchi sxematik plakat.
- Pedagogik mahoratning ilmiy tadqiqot usullari ko'rsatilgan plakat.
- Ta'lim mazmunini tashkil qiluvchi ta'lim tamoyillari ko'rsatilgan ko'rgazmali plakat.

O'quv filmlari ro'yhati (internetdan olinadi).

Didaktik materiallar ro'yhati; multmedik ilovalar.

Ma'ruza matnlari bo'yicha tarqatma materiallar.

Amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tarqatma materiallar.

## **5. O'ZLASHIRISHNING NAZORATI**

### **Nazorat turlari:**

*joriy baholash uchun:*

- seminarining mashg'ulot savollariga yozma javoblar tayyorlash;
- og'zaki bahs-munozaralarda qatnashish;
- test varianlariga javoblar berish;
- referatlar yozish.

*oraliq baholash uchun:*

- ma'ruza darslariga qatnashish;
- ma'ruzalar mazmunini yozib borish;
- ma'ruza darslarida yakuniy baholash uchun faol savollar va javoblar bilan qatnashish.

Kafedrada tasdiqlangan fan varianti savollariga 1200 so'z miqdoridagi "yozma ish" ni bajarish yoki test savollari, variant savollariga og'zaki javob berish.

## **6. ADABIYOTLAR**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. – T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. – T.: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4. – T.: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T. 5. – T.: O'zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. - T.: O'zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. – T.: O'zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T. 8. – T.: O'zbekiston, 2000.
10. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. – T.: O'zbekiston, 2001.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. – T.: O'zbekiston, 2002.
12. Aminov N. A. Diagnostika pedagogicheskix sposobnostey..-M.: In-t. Prakticheskoy psixologii. Voronej. NPO MODEK, 1997.
13. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: Sharq, 1997.
14. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: O'zbekiston, 2000 y.
15. Pidkasiy L. I. , Portnov M. L. Iskustvo prepodavaniya. Pervaya kniga uchitelya. – M.: Izd. Rossiyskoe pedagogicheskoe agentsvo, 1998.
16. Pidkasiy P. I, Fridman L M, Gartskov M. G. Psixologo-didakticheskiy spravochnik prepodavatelya visshey shkoli.-M.: 1999.

## Qo'shimcha adabiyotlar

1. Axlidinov R. Sh. Upravlenie obrazovaniem v Uzbekistane: problemi, poiski, resheniya. -T.: 1999.
2. Bepalko B. Slagaemie pedagogicheskoy texnologii.-M.: Pedagogika, 1999.
3. Vsemirnaya deklaratsiya o visshem obrazovanii dlya XXI veka: podxodi i prakticheskie meri. –Parij, 1998.
4. Zivert X. Zivert R. Podgotovka k testirovaniyu. Per. s nem. –M.: AO Inter-ekspert, 1998.
5. Liver Betti Lu. Obuchenie vsego klassa. Perv. s angl. M.: 1995.
6. Mavlonova R, To'raeva J. Pedagogika. T.: O'qituvchi, 2001.
7. Osnovi professionalnoy pedagogiki, -M.: 1997.
8. Pedagogika. (A.Munavvarovning umumiy tahriri) -T.: O'qituvchi, 1996.
9. Podlasiy I. P. Pedagogika. Noviy kurs. -M.: 1999.
10. Professionalnaya pedagogika: Uchebnik dlya studentov, obuchayushchixsya po pedagogicheskim spetsialnostyam i napravleniyam. M.: Professionalnoe obrazovanie, 1997.
11. Psixologiya i pedagogika / Pod red. A.A. Radugina-M.: Tsentr,1999.
12. Psixologiya i pedagogika: uchebnoe posobie. /Pod red. V.M.Nikolae nko-MIFRA/-M.: Novosibirsk, 1999.
13. Raven Djon-mladshiy. Pedagogicheskoe testirovanie: problemi, zablujdeniya, perspektivi. Per. s angl. - M.: 1999.
14. Stefanovskaya T. A. Pedagogika: nauka i isskustvo. Uchebnoe posobie.-M.: Sovershenstvo, 1998.
15. Selevko G. K. Sovremennie obrazovatelnie texnologii - M.: 1998.
16. Sibirskaya M.P. Professionalnoe obuchenie: Pedagogicheskie texnologii. Sankt Peterburg, 1996.
17. Slastenin V.A., L.S.Podmova, Pedagogika: Innovatsionnaya deyatel'nost. - M.: 1998.
18. Farberman B. L, R. G. Musina, F. A. Djumabaeva. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari.-T.: 2002.
19. Farberman B. L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. -T.: Fan, 2000.
20. Farberman B. L, R. G. Musina, F. A. Djumabaeva. Sovremennie usuli prepodavaniya v vuzax. -T.: 2001.